



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

## **ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR TA’LIM JARAYONIDA DAKTIL NUTQINING OG‘ZAKI NUTQ BILAN BOG‘LIQLIGI**

Z. Jo‘raqulova

Nizomiy nomidagi TDPU surdopedagogika inklyuziv  
ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada eshitish qobiliyati zaif o‘quvchilarni muloqot vositasi sifatida dakttil nutqi va og‘zaki nutq bilan bog‘liqligi mazmun mohiyati yoritilgan.

### **Аннотация:**

В данной статье рассматривается использование аудио как средства общения для учащихся с нарушениями слуха. Подчеркивается суть содержания, в том числе связь дактильной речи с устной речью.

### **Abstract:**

This article discusses the essence of the relationship between phonics and oral speech as a means of communication for students with hearing impairments.

**Kalit so‘zlar:** Daktiologiya, chizuvchi harflar, shartli belgilar, kinestetik sezgilar, imo-ishora nutqi, kommunikativlik.

**Ключевые слова:** Дактилология, рисование букв, условные символы, кинестетические ощущения, язык жестов, коммуникабельность.

**Keywords:** Dactylography, drawn letters, traditional signs, kinesthetic senses, sign language, communication skills.

Hozirgi zamanoviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning ta’limini ham samarali tashkil etish va ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashishdan iborat. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalning ta’lim jarayonini alohida olib qaraydigan bo‘lsak, eshitishida nuqsoni bo‘lgan



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

bolalarning muloqot quroli faqatgina imo-ishora yoki daktil emas balki, ularni og‘zaki nutqini so‘zlashuv quroli sifatida shakllantirish surdopedagoglarning oldidagi maqsadlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Daktilologiya – kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o‘ziga xos shaklidir. U so‘zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma xarakatga ko‘ra yozma nutqqa o‘xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo‘l, barmoq harakatlari hisoblanadi. O‘zbek tilining har bir harfi o‘zining harakatli ifodasiga egadir. daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin:

1. chizuvchi harflar (z, b, d);
2. harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, t);
3. shartli belgilar (v, j, n).

Daktil nutqi so‘zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko‘ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. Bog‘cha davrda kar bola daktilologiyaga savod o‘rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko‘rsatishicha, daktilologiya eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar so‘zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ye.N. Marsinovskaya tadqiqot natijalariga ko‘ra, bu nutq formasining quyidagi belgilarini ochib beradi. Eshituvchi bolalarda daktillash 2,5 marta og‘zaki nutqni bayon qilishga nisbatan orqada qoladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda og‘zaki nutqni bayon etish va daktillash tempi bir xil bo‘ladi, ba’zan daktillash og‘zaki nutqni bayon etishda oldindan o‘tib ketish hollari ham ko‘zatiladi. Daktilologiya og‘zaki nutqni o‘zida namoyon qiladi, lekin suhbat jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar daktil nutqiga nisbatan imo-ishora nutqidan keng doirada qo‘llaniladi. L.A.Novikova va Ye.N. Marsinovskaya tomonidan o‘tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko‘ra daktilologiya ham og‘zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosiga qo‘riladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar fikrlash operasiyalarida faqat artikulyator apparatlarda, balki qo‘l, baromoq muskullarida ham impulslar yuzaga kelgani kuzatilgan. Lekin, artikulyator apparatdagi nutqiy kinestiziylar, qo‘l kinesteziyalariga nisbatan puxta bo‘lib, tadqiqot obyekti sifatidan o‘rganish talab etiladi. Ye.N.Marsinovskiy daktillash tempi og‘zaki nutq talaffuzi yaxlitligiga ta’sirini o‘rgatgan. Bu tajribalar ko‘rsatishicha kar bola daktillash texnikasini yaxshi o‘rganganda daktilologiya og‘zaki nutq tempi va yaxlitligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Daktillash texnikasini yaxshi darajada egallamaslik, talaffuz to‘g‘riliqi, nutqni



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

tushunarligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Daktiologiyani yaxshi egallagan o'quvchilar so'zning tovush sostavini to'liq egallaydi. Ularda so'zning tovush va daktil obrazi o'rtasida shartli aloqalar o'rnatiladi. Lekin so'zning talaffuzi yozilishdan uzoqlashsa tovush tarkibini o'rganishda daktiologiya ta'sir ko'rsatdi. Daktiologiyani va yozma nutqning o'zaro munosabati juda murakkabdir. S.A.Zikov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda, bu muammo tadqiq etilgan. Eshituvchi bola savodga o'rgatishning boshlang'ich etapida nutqni akustik va harakat obrazlariga tayanadi. Bolani so'zli yozishidan avval uni ichida yoki ovoz chiqarib o'qishini ko'rish mumkin. Kar bola og'zaki nutqqa ega bo'lganligi uchun savodga o'rgatish davrida daktiologiyaga tayanadi. So'ng bu jarayon bir vaqtda amalga oshadi, bola ham yozadi va daktillaydi. So'zlashuv nutqini egallah darajasiga ko'ra daktil kinesteziyalari asta-sekin siqilib, artikulyator kinesteziyalar bilan almashinadi. U ham bola singari so'zni talaffuz etib, so'ng yozadi. Daktiologiya atrofdagilar nutqini labdan o'qishda ham muhim vosita sanaladi. Chunonchi, ayrim tovushlar labdan yomon o'qiladi, shu o'qishda daktiologiyadan foydalanadi. Lekin labdan o'qish jarayonida daktiologiyadan foydalanish ham ijobjiy samara beradi. Labdan o'qishning koloreya tizimida o'z ifodasini topgan.

O'quvchilarning daktil va imo-ishora nutqini shakllantirish, ona tilini talab darajasida egallah, karlik oqibatlarini yengish, fan asoslarini puxta egallah, maxsus mакtabni tamomlagandan so'ng eshitish jamiyatiga kirish imkonini beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ona tilini o'zlashtirishi ularnikiga nisbatan o'ziga xosdir. Og'zaki nutqni eshitish qobiliyati zaif bolalarning muloqot vositasi sifatida shakllantirish maxsus tashkil etilgan ta'lim tizimining asosiy maqsadi hisoblanadi. Daktil nutqi kar bolalarni o'rgatish uchun kuchli vosita bo'lib, u so'z boyligini va nutqni o'zlashtirish sifatini, shuningdek, kar bolalarning umumiyl rivojlanish darajasini bir necha bor oshirishi mumkin. Ota-onalar va kar bolalarni nafaqat bola bilan muloqotda to'g'ri tarbiyalash, balki o'zlarining fikrlari, to'g'rirog'i, ular bilib-bilmay hukm qilishlari, bolaning to'la qonli tarbiyasi uchun. Ular tarbiya bergenlarga uning ahamiyatini tushuntirish uchun daktil nutqining ahamiyatini ham tushunishlari kerak. Daktiologiyani puxta egallagan o'quvchilar so'zlearning tovush tarkibini to'liq o'zlashtiradilar. Ularda so'zning tovush va daktil obrazi o'rtasida emas, shartli bog'lanishlar o'rnatiladi. Ammo so'zning talaffuzi



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

yozuvdan uzoq bo'lsa, daktiologiya tovush tarkibini o'rganishga ta'sir ko'rsatdi. Imo-ishora nutqida murakkab gaplarga nisbatan sodda gaplar ko'p qo'llaniladi. Gap tarkibidagi qo'shimchalar imo-ishora nutqida kam qo'llaniladi. Imo-ishora nutqi egallash jarayoniga enb bolani so'zlashuv nutqini egallash darajasi ta'sir ko'rsatadi. Imo-ishora nutqi ham so'zlashuv nutqining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, lekin bu ta'sir salbiy ko'rinishga ega bo'ladi. Ba'zan yozma yoki og'zaki nutqda gap tuzish imo-ishora nutqidagi barcha nuqsonlarni o'zida ifodalaydi. Gap bo'laklarini o'rnini almashib qolishi, so'zlarni grammatik aloqasini buzilishi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Daktiologiya eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga oson va tez so'zlashuviga imkon beradi. Enb bolalar daktiologiya belgilarini ko'zi bilan qabul qiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun bog'cha va maktablarning boshlang'ich sinflarida daktiologiyadan asosiy o'qitish vositasi sifatida va maktabning yuqori sinflarida esa undan yordamchi o'qitish vositasi sifatida foydalaniladi. Enb bolalarga ta'lim berishda daktiologiya birdan-bir aloqa vositasidir.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasida og'zaki nutq yetakchi ahamiyatga ega. Lekin ularni og'zaki nutqqa o'rgatishda bizga yordamchi vosita bo'lib, daktil va imo-ishora nutqi yordam beradi. Demak, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni har tamonlama rivojlantirish va ularda korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etishda biz imo-ishora, daktil, yozma va og'zaki nutqqa murojaat qilamiz va ulardan o'z o'rnida foydalanishimiz esa ijobjiy natijalarga olib keladi. Shunday qilib daktil nutqi eshitishida nuqsoni bo'lgan insonlar va eshitadigan odamlar o'rtasidagi muloqotning bir qismi sifatida eshtishda nuqsoni bo'lgan insonlarning kommunikativ faoliyatiga kiradi.

## Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mamarajabova Z.N. Ona tili o'qitish maxsus metodikasida pedagogik texnalogiyalar – T., 2004
2. Z.I.Islombekova. Imo-ishora va daktiologiya nutqi/ Toshkent-2011
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016.48.



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> April, 2025

4. Oppel V. V. Kineticheskaya rech glukhix. cheskaya rech Gluchonemota, glu hota and tugouxost, Sat. St. Leningradskogo institute glukhonemykh. 1936.5.135-168, 210.